

## Sobiq hamkasabaga sodiqlik

✘ Moziyga nazar tashlarkansiz, turli makonlarda va turli zamonlarda muayyan ijtimoiy tuzilmaga e'tibor yuqori darajada bo'lgan. Hatto, Fir'avn hukmdorlaridan biri Ramzes - 2 o'sha maskanni "Ruhiy darmon" deya e'tirof etgan. Bu ijtimoiy tuzilma KUTUBXONAdir. Bilimlar manbai va mayog'i bo'lgan kitoblar xazinasiga taraqqiyparvar va ma'rifatli hukmdorlar alohida e'tibor bilan qarashgan. Institutimiz kutubxonasi ham o'zining muayyan mo'jaz tarixiga ega. Uning shakllanishida ushbu insonlarning ma'lum darajada xizmatlaridan ko'z yumib bo'lmaydi. R. D. Klimkina, B. U. Tashkuziyeva, F. X. Yangayeva, M. N. Xodjayeva, V. M. Sadovnikova, V. I. Makova singari ko'plab o'z kasbining ajoyib ustalari, ya'ni institutimiz kutubxonasining yaratilishi va uning kelajagi asosi uchun tamal toshini qo'ygan murabbiylar bilan yonma-yon ishlash bizga faxr baxsh etgan.

Hozirgacha sobiq xodimlar, hamkasblar bilan muntazam ravishda aloqadalar. Maslahatlashib fikr almashish odatiy holatga aylangan. Ularni yubiley sanalarida tabriklab turish, institutda o'tkaziladigan bayram tadbirlarida ishtiroklarini ta'minlash ham ana shu xayrli ishlarning in'ikosidir. O'zaro ishonchga yo'g'rilgan muloqot davralarida, ularning yo'l-yo'riqlariga tayaniladi. Ularning ish tajribalarini bo'lishadilar.

2019 yil 19 yanvarda ARM xodimlari TIQXMMning xizmat ko'rsatgan kutubxonachisi Raisa Dmitriyevna Klimkinaning 80 yoshga to'lganligi munosabati bilan chin qalbdan tabrikladilar. ARM xodimlari yetakchi kutubxonachi, bo'lim mudiri va boshqa vazifada bo'lsin, ularning o'quvchilari, shogirdlari bo'lishgan, ularning o'gitlariga amal qilib hamon faxrlanishadi. Qutlug' ayyom bilan tabriklash maqsadida murabbiy xonadoniga tashrif buyurishdi, ularga sovg'alar va gullarni taqdim etib, ko'ngillarini shod etishdi. Dasturxon atrofida to'plangan barcha mehmonlar iliqlik bilan kutubxonada hamjihatlikda o'tgan davrlarni esladilar. Ilmiy - uslubiy va axborot - ma'lumot bo'limi mudiri N. Yu. Milichenkova so'z olib, kutubxona xodimlari nomidan murabbiy uchun atalgan bayramona tabrik so'zini aytib, bag'ishlov she'rini o'qib eshittirdi. Unga uzoq-umr, sihat-salomatlik, quvonch va dunyodagi barcha ezgu niyatlarni tiladi. Raisa Dmitriyevna dasturxon atrofida yig'ilgan kutubxona xodimlariga chin yurakdan minnatdorlik bildirib, kelgusida ham shunday do'stona munosabat va uchrashuvlar saqlanib qolishiga umidvorligini bildirdi.

**Axborot-resurs markazi direktori v.b. M. Axmedova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**